



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 15-noyabr, № 237 (9132)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



QOZOG'ISTON PREZIDENTINING O'ZBEKISTONGA DAVLAT TASHRIFI BOSHLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 14-noyabr kuni davlat tashrifi bilan Toshkentga keldi. Qozog'iston yetakchisini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kutib oldi.



Qosim-Jomart Toqayev mamlakatimizga kelgach, davlat rahbarlari “Toshkent-Humo” xalqaro aeroportida suhbat o'tkazdilar.

O'zbekiston — Qozog'iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada rivojlantirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Shundan so'ng Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevni rasmiy kutib olish marosimi bo'lib o'tdi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki davlat bayroqlari ko'tarildi, faxriy qorovul saf tortdi. Harbiy orkestr ijrosida O'zbekiston va Qozog'iston davlat madhiyalari yangradi.

Prezidentlar Qosim-Jomart Toqayev va Shavkat Mirziyoyev faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

Tashrif dasturiga muvofiq, 15-noyabr kuni oliy darajadagi muzokaralar hamda Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig'ilishi bo'lib o'tadi.

Sammit doirasida yirik qo'shma loyihalar ishga tushirilishi va ikki tomonlama hujjatlarning katta to'plami imzolinishi kutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

TOSHKENTDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI RAHBARLARINING YETTINGCHI MASLAHAT UCHRASHUVI BO'LIB O'TADI

15-16-noyabr kunlari Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tadi.

Sammitda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, shuningdek, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari Xaxa Imnadze ishtirok etadi.

Tadbir kun tartibidan Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash, shuningdek, ustuvor sohalarida qo'shma loyihalar va tashabbuslarni amalga oshirish masalalari o'rin olgan. Mintaqaviy va xalqaro siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashiladi.

Maslahat uchrashuvi yakunlariga ko'ra ko'p tomonlama hujjatlarning salmoqli to'plami qabul qilinishi kutilmoqda.

Mintaqa davlatlari rahbarlarining muntazam maslahatlashuvlarini o'tkazish tashabbusi O'zbekiston yetakchisi tomonidan 2017-yilning sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan edi.

O'zbekistonning ushbu formatdagi raisligi davrida hamkorlikning turli sohalarini qamrab oluvchi 20 dan ortiq yirik tadbirlar o'tkazildi.

O'ZA.

Dunyo nigohi

CHINAKAM BIRDAMLIK VA HAMJIHATLIK SARI DADIL QADAM

Xorijlik ekspertlar Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasi haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Syuy TAO, Xitoy Davlat kengashi huzuridagi Ijtimoiy rivojlanish tadqiqotlari markazining Yevroosiyo ijtimoiy rivojlanish instituti direktori o'rinbosari:

— O'zbekiston Prezidenti muallifligidagi “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” nomli maqola bilan batafsil tanishib chiqdim. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'ttiz yildan ortiq mustaqillikdan so'ng mintaqaviy integratsiya va hamkorlikni rivojlantirishga ulkan e'tibor qaratmoqda. Mintaqa mamlakatlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan boy resurslar va umumiy madaniy merosga ega. Agar Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro hamkorlikka tizimli va do'stona yondashsa, bu shubhasiz, butun mintaqa taraqqiyoti yo'lida katta foyda keltiradi.

2017-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini tashkil etish g'oyasi qo'shni davlatlar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlangan edi. 2018-yildan boshlab Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvlari muntazam o'tkazila boshlandi. Bunday uchrashuvlar doirasida ko'plab muammoli masalalar konstruktiv tarzda hal etildi. Hududiy nizolar, suv taqsimoti, chegara va boshqa dolzarb masalalar Maslahat uchrashuvlari kun tartibiga kiritildi.

Bu yutuqlar, birlashib navbatda, iqtisodiy rivojlanishda o'z aksini topmoqda. Jumladan, 2022-yildan boshlab Markaziy Osiyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsuloti ketma-ket uch yil davomida yiliga 5 foizdan ortiq o'sishni qayd etdi. Bu jahon iqtisodiyotining o'rtacha 3 foizlik o'sish sur'atidan sezilarli darajada yuqoridir. Yana bir e'tiborga loyiq hodisa — mamlakatlar o'rtasida muvofiqlashtirishni kuchaytirish, yagona bozorni shakllantirish, sanoat va ta'minot zanjirlari o'rtasidagi uzilishlarni bartaraf qilish bo'ldi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida uzoq yillar davom etib kelgan qator ziddiyatlar o'z yechimini topdi. 2022-yilda Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida chegara va suv masalalari bo'yicha mojaro kelib chiqdi. Biroq bir necha yillik hamjihatlikdagi sa'y-harakatdan so'ng O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida tegishli shartnomalar imzolandi, bu nizo konstruktiv tarzda hal qilindi.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosat sohasida yagona muvofiqlashtirilgan pozitsiyani shakllantirdi. “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi”, “Markaziy Osiyo — Xitoy”, “Markaziy Osiyo — Rossiya” va boshqa hamkorlik modellari mintaqaning umumiy salohiyatini yuksaltirmoqda.



Konferensiya

GLOBAL XATARLAR DAVRIDA PARLAMENT DIPLOMATIYASINING O'RNI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev boshchiligidagi parlament delegatsiyasi Islomobod shahrida bo'lib o'tgan Parlamentlararo spikerlar konferensiyasining birinchi majlisida ishtirok etdi.

Ochilish marosimini Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif boshlab berdi.

Pokiston Bosh vaziri o'z nutqida mamlakatning tinchlik, diplomatik muloqot va barqaror taraqqiyot tamoyillariga sodiqligini qayd etdi.

Konferensiyada Sodiq Safoyev global xatarlar davrida parlament diplomatiyasining rolini kuchaytirish, tinchlik va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash, transport-logistika yo'laklarini kengaytirish hamda o'zaro ishonch va ko'p tomonlama muloqotni mustahkamlash borasida O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar haqida batafsil ma'lumot berdi.

Ushbu tashabbuslar xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotgani, ular mintaqada iqtisodiy integratsiya, xavfsizlik va taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlar yaratishi alohida qayd etildi.

Tadbir yakunida tinchlik, xavfsizlik, barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiqlik ifodalangan Islomobod kommyunikesi qabul qilindi. Unda parlament diplomatiyasini kuchaytirish, iqlim o'zgarishining oldini

olish, tengsizlik va mojarolarni bartaraf etishda parlamentlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish zarurligi urg'ulandi.

Shuningdek, konferensiya doirasida Senat Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev qator davlat va xalqaro tuzilmalar vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Ularda parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash, tajriba almashish, ko'p va ikki tomonlama kun tartibidagi boshqa masalalar yuzasidan fikrlar almashildi.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

BARQAROR TARAQQIYOT ASOSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ikki siyosiy partiya — Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyalari a'zolaridan iborat “Taraqqiyot bloki” ning navbatdagi qo'shma yig'ilishi bo'ldi.

Ma'lumki, joriy yilning may oyida o'tkazilgan O'zLiDeP va “Milliy tiklanish” DP fraksiyalarining qo'shma yig'ilishida “Taraqqiyot bloki” ni tuzish haqida qaror qabul qilinish, uning asosiy ustuvor yo'nalishlari belgilab olingan edi. Blokning asosiy maqsadi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni qo'llab-quvvatlash, “O'zbekiston — 2030” strategiyasi hamda uni amalga oshirishga qaratilgan hukumat dasturini hayotga tatbiq etishda siyosiy faollikni yanada kuchaytirishdir.

Yig'ilishda davlatimiz rahbarining “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” nomli maqolasi va unda ilgari surilgan besh ustuvor yo'nalish atrofida ko'rib chiqildi.

Deputatlar maqolani nafaqat mintaqaviy hamkorlikni institutsional asosda

chuqurlashtirishga qaratilgan strategik hujjat, balki uzoqni ko'zlagan amaliy siyosiy konsepsiya sifatida yuqori baholadi.

Maqolada so'nggi yillarda mintaqani tubdan o'zgartirgan jarayonlar va uni yangi bosqichga — ishonch, ochiqlik va o'zaro hurmatga asoslangan hamkorlik davriga olib kelgan omillar atroficha yoritilgan. Tarixda ilk bor Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida barqaror va mustahkam o'zaro anglashuv muhiti shakllangan, chegaralarning huquqiy jihatdan to'liq rasmiylashtirilishi, suv resurslaridan foydalanish bo'yicha kelishuvlar, o'zaro savdo hajmining o'sishi, transport yo'laklarining faollashuvi va qo'shma investitsiya loyihalarining kengayishi mintaqaviy jipslashuv uchun mustahkam asos yaratib berayotgani e'tirof etilgan.



MARKAZIY OSIYO VA OZARBAYJON YANGI INTEGRATSIYA MAKONINI SHAKLLANTIRMOQDA

15-16-noyabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev ham faxriy mehmon sifatida ishtirok etishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan mazkur davlatning mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Husayn GULIYEV “Xalq so'zi” gazetasiga intervyu berdi.

Do'stlik rishtalari

— Shu kunlarda Toshkent yana bir bor butun Markaziy Osiyo e'tiborini o'ziga tortadigan maydonga aylandi. Bu yerda mintaqa davlat rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tyapti. Mazkur forum allaqachon siyosiy taqvimdan mustahkam o'rin olgan. U nafaqat an'ana, balki Markaziy Osiyo birligining ramziga aylandi. Bu jarayonda O'zbekiston mazkur formatning tashabbuskori sifatida alohida o'rin tutadi. Mamlakat nafaqat ushbu formatning asoschisi, balki yillar davomida uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib qolmoqda. Uchrashuvlar tashabbuskori Prezident Shavkat Mirziyoyevning ochiqlik va yaxshi qo'shnichilik siyosati mintaqada ichidagi munosabatlarni amalda qayta ishga tushirdi.

2018-yil mart oyida Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilari Ostona

birinchi uchrashuvga yig'ilganlarida, kamdan-kam odam bu maydon pozitsiyalarini muvofiqlashtirishning doimiy va talabgir mexanizmiga aylanishini taxmin qilgan edi. Bugungi kunda esa Maslahat uchrashuvlarini oddiy diplomatik marosim deb atash qiyin — u aniq masalalarni hal etishga va umumiy maqsadlarga erishishga yordam beradigan samarali formatga aylandi.

Birgalikda umumiy maqsadlar sari

Mintaqada integratsiya jarayonlarining yangi bosqichi 2016-yilda — O'zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qo'shnilar bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish yo'lini tutganidan boshlandi. Qisqa muddatda eski to'siqlar olib tashlandi. Tojikiston bilan viza tartibi bekor qilindi, kuyaqatnovlar va temir

yo'l liniyalari tiklandi, chegaralarni delimitatsiya qilish jarayoni boshlandi. Bularning barchasi mintaqada ichidagi hamkorlikka dinamika berdi, savdo, turizm va o'zaro aloqalarni jonlantirdi.

“Markaziy Osiyo mamlakatlarining muvofiqlashtirilgan va kelishilgan yondashuvlari mintaqaviy rivojlanish va farovonlikning umumiy maqsadlariga erishish imkonini beradi”, deya ta'kidlagan edi Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmanistonda Toshkent sammitiga tayyorgarlik doirasidagi uchrashuvda so'zlagan nutqida. O'zbekiston raisligi doirasida raislik konsepsiyasi va qo'shma tadbirlar jadvali qabul qilindi. Yil davomida Xavfsizlik kengashlari kotiblari, maxsus xizmatlar rahbarlari, sanoat, energetika, suv xo'jaligi va ekologiya vazirlarining uchrashuvlari bo'lib o'tdi, media va yoshlar forumlari tashkil etildi. Yil oxiriga qadar parlamentlararo forum, mudofaa, savdo va transport vazirlarining uchrashuvlari, shuningdek, qator madaniy-gumanitar tashabbuslar rejalashtirildi.

Mintaqaviy sheriklikning yangi kun tartibini shakllantirish uchun Toshkent maslahat jarayonining me'yoriy-

huquqiy bazasini mustahkamlashga qaratilgan konseptual hujjatlarni tayyorladi. Bo'lajak uchrashuvda O'zbekiston tomoni siyosiy muloqotni chuqurlashtirish, transportning o'zaro bog'liqligini kengaytirish, chegaraloldi savdosini rivojlantirish va iqtisodiy hamkorlikning yangi drayverlarini ishga tushirish bo'yicha tashabbuslarni ilgari surish niyatida. Sammitning diqqat markazida suv va energetika sohasidagi o'zaro hamkorlik, iqlim o'zgarishi va tabiatdan oqilona foydalanish yo'nalishidagi hamkorlik masalalari ham bo'ladi.

O'tgan yilgi Ostona

Mintaqa allaqachon sezilarli natijalarni namoyish etmoqda. So'nggi besh yilda mintaqa ichidagi savdo 80 foizdan ortiq o'sib 11 milliard dollardan oshdi, potensial esa 15 milliard dollarga yetishi mumkin. Prezident

Shavkat Mirziyoyev bundan ham yuksakroq marralarni taklif qilmoqda — yagona mintaqaviy bozorni strategik maqsad sifatida ko'rib chiqish va mintaqa mamlakatlari Bosh vazirlari o'rinbosarlari muntazam uchrashadigan iqtisodiy kengash tuzish.

Qulay geografik joylashuvi tufayli O'zbekiston Yevroosiyo

yangi transport arxitekturasini shakllantirib, mintaqaning bog'lovchi bo'g'iniga aylanmoqda. Quruq portlar, multimodal markazlar va temir yo'llarga kiritilayotgan keng ko'lamli investitsiyalar Toshkentga Transkaspiy yo'nalishidagi mavqeini mustahkamlash imkonini bermoqda. Bu yo'lak Xitoy, Markaziy Osiyo, Kavkaz va Turkiyani bog'lab, tashqi iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Biroq bu yangi sa'y-harakatlarni talab etadi — chegara punktlarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini yaxshilash, bojxona tartib-qoidalarini unifikatsiya qilish, tariflarni kelishish zarur. Ammo bu borada ham O'zbekiston BAA, Turkiya va boshqa mamlakatlardan xalqaro hamkorlarni jalb etgan holda tizimli harakat qilmoqda.



AVLODLAR OLDIDAGI TARIXIY BURCH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” nomli maqolasida mintaqaviy hamkorlikning yangi, tarixiy bosqichini boshlab berayotgan strategik yoʻnalishlar tahlil qilinadi.

Davlatimiz rahbari oʻz maqolasida bugungi globallashuv, iqtisodiy parokandalik va iqlim oʻzgarishlari sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari oʻzaro jipslashuvni chuqurlashtirishi zarurligini taʼkidladi. Ayniqsa, ekologik barqarorlik, suv resurslarini oqilona boshqarish, “yashil” energetikani rivojlantirish hamda iqlim oʻzgarishlariga moslashish masalalari mintaqaviy hamkorlikning ustuvor yoʻnalishlari

sifatida alohida eʼtiborga sazovor. Bugun dolzarb ekologik muammolar — suv tanqisligi, muzliklarning erishi, choʻllanish, Orol fojiasi oqibatlari kabi masalalar Markaziy Osiyoning har bir davlati hayotiga bevosita taʼsir koʻrsatmoqda. Shu bois Prezidentimiz bu sohadagi hamkorlikni strategik zarurat sifatida koʻrsatib, iqlim oʻzgarishlariga qarshi birgalikda kurashish, transchegaraviy suv

resurslarini adolatli boshqarish va biologik xilmaxillikni saqlash boʻyicha yangi yondashuvlarni ilgari surdi.

Maqolada keltirilganidek, Amudaryo suv resurslaridan oqilona foydalanish boʻyicha Turkmaniston bilan imzolangan bitim, “Qambarota GES-1”, Yovon va Fondaryo GESlari, Bahri Tojik suv ombori boʻyicha hamkorlik — bularning barchasi mintaqaviy birdamlik va ekologik masʼuliyatning amaliy ifodasidir. Bunday yirik loyihalar nafaqat energetik xavfsizlikni taʼminlaydi, balki suv resurslarining barqaror boshqaruvi, atrof-muhit

muhofazasi va aholining farovon hayotini taʼminlashga xizmat qiladi.

Prezidentimiz taʼkidlaganidek, Markaziy Osiyo barqaror ekologik rivojlanish mintaqasi va atrof-muhitga masʼuliyatli munosabatning namunasi boʻlishga qodir va shunday boʻlishi kerak. Bu fikr nafaqat mintaqaviy siyosat, balki xalqaro miqyosda ham Oʻzbekiston tashabbuslari ahamiyatining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, maqolada Orolboʻyi mintaqasini ekologik innovatsiyalar hududiga aylantirish, “yashil” iqtisodiyotni

rivojlantirish va kam uglerodli texnologiyalarni joriy etish masalalari kelajak istiqboli sifatida belgilab berilgan. Ushbu yoʻnalishlarda olib borilayotgan izchil ishlar Oʻzbekistonning global ekologik tashabbuslarda faol ishtirokining yorqin dalilidir. Bugun mintaqaviy birdamlik va ekologik masʼuliyat — yangi Markaziy Osiyoning asosiy ustuni sifatida shakllanmoqda. Shu bois ekologik muhitni asrash, suv va tabiiy boyliklarni oqilona boshqarish, “yashil taraqqiyot” yoʻlini tanlash — nafaqat bugun, balki butun mintaqaning ertangi avlodlari uchun ham eng muhim tarixiy burch.

Sayyora ABDIKARIMOVA,
Oliy Majlis Senati aʼzosi.

MAS’ULLIK, FAOLLIK VA DAXLDORLIK TUYG’USI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” nomli maqolasi keng jamoatchilik, ayniqsa, yoshlar oʻrtasida qizgʻin muhokama qilinmoqda. Mazkur maqola nafaqat Oʻzbekistonning, balki butun Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy kelajagi, barqaror rivoji va oʻzaro uygʻun hamkorligi uchun muhim dasturilamal hujjat sifatida xizmat qilishi taʼkidlanmoqda. Mintaqaviy integratsiya jarayonlari jadallashayotgan hozirgi davrda bunday konseptual fikrlar va aniq yoʻnalishlarning belgilanishi ham siyosiy, ham iqtisodiy nuqtayi nazardan beqiyos ahamiyatga ega. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari boʻyicha komissiyasi hamda Yoshlar parlamenti aʼzolarining fikr-mulohazalari shu haqda.

Yuksalishning asosiy garovi

Shahnoza JOLDASOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasining Yoshlar
masalalari boʻyicha
komissiyasi raisi:

— Maqoladagi eng eʼtiborli jihatlardan biri — bu Markaziy Osiyo da oʻzaro ishonch muhitining mustahkamlanayotgani, qoʻshni davlatlar oʻrtasida ochiq muloqot, fikr almashinuvi va konstruktiv hamkorlikning sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarilayotgani. Aynan davlatlararo ishonch va doʻstona aloqalar har qanday hududning taraqqiyoti uchun asosiy shart boʻlib xizmat qiladi.

Bugungi kunda Oʻzbekistonning tashqi siyosatda ochiqlik, pragmatik yondashuv va hamkorlikka tayangan yangicha siyosiy kursi tufayli mintaqada yuzlab yillik muammolar ijobiy yechim topdi, chegaralar masalasida misli koʻrilmagan konstruktiv natijalar kuzatildi. Maqolada ham aynan shu yutuqlar mintaqaning kelajagi uchun poydevor boʻlishi qatʼiy taʼkidlangan. Bu jihat nafaqat Oʻzbekiston, balki butun Markaziy

Osiyoning barqaror va tinch rivojlanishiga xizmat qiladi.

Alohida urgʻu berilgan muhim yoʻnalish — bu inson kapitalini rivojlantirish, yoshlar salohiyatini qoʻllab-quvvatlash va mintaqaviy madaniy-gumanitar hamkorlikni kuchaytirish masalasi. Bugun Markaziy Osiyo aholisi juda yosh demografik tarkibga ega. Bu esa ulkan imkoniyat bilan birga katta masʼuliyatni ham yuklaydi.

Taʼlim, fan, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, zamonaviy kasblar va yoshlar diplomatiyasi — bularning barchasini rivojlantirish mintaqaning ertangi kundagi taraqqiyot darajasini belgilab beradi. Maqolada aynan shu jihatlariga chuqur eʼtibor berilgani juda toʻgʻri yondashuvdir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning mazkur maqolasi — Markaziy Osiyoning ertangi kuniga ijobiy ishonch bilan qarashga undaydigan, mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichini belgilovchi, oʻzaro ishonch va hamjihatlikka asoslangan ulkan konsepsiyadir. U mintaqada davlatlarni birlashtirishga xizmat qiluvchi tamoyillarni aniq belgilab beradi, hamkorlikning real mexanizmlarini koʻrsatadi va kelajakdagi yutuqlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Mustahkam doʻstlik va birdamlik ifodasi

Otabek SOBITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi huzuridagi Yoshlar
parlamenti raisi:

— Maqolada soʻnggi yillardagi oʻzaro hamkorlikning eng muhim yutuqlari izchil tahlil qilingan. Ulardan eng ahamiyatlisi — chegaralarning uzil-kesil hal etilishi va ularning doʻstlik koʻprigiga aylanishidir. Oʻzbekiston, Qirgʻiziston va Tojikiston oʻrtasida imzolangan uch tomonlama Shartnoma xalqlarimiz oʻrtasidagi yaqinlikni yanada mustahkamladi. Bu oʻzgarishlar savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi, madaniy-gumanitar integratsiyaning kuchayishi va mintaqada boʻylab insonlarning erkin harakatlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Amaliy natijalar ham eʼtiborga molik: Markaziy Osiyoning yalpi ichki mahsuloti 520 milliard dollarga yetgani, oʻzaro savdo hajmi 11 milliard dollargacha ortgani mintaqada davlatlarining birgalikdagi pragmatik siyosatining samaradorligini koʻrsatadi.



Maqolada yoshlar Markaziy Osiyoning eng katta boyligi sifatida urgʻu berilgan boʻlib, ular kelajakda ulkan investitsiyadir. Yoshlarning taʼlimi, sogʻligʻi, ijtimoiy faolligi va ularning adolati imkoniyatlarga ega boʻlishi mintaqaning ertangi taraqqiyotini belgilab beradi. Maqolada yoshlarga oid siyosiy kun tartibining alohida eʼtiborda boʻlishi ham shundan dalolat.

Prezidentimizning mazkur maqolasi Markaziy Osiyoda yangi siyosiy tafakkur, oʻzaro ishonch va hamkorlikka tayangan yondashuvning shakllanayotganini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu yondashuv mintaqamizni barqaror rivojlanish, taraqqiyot va doʻstlik sari yetaklayotgan muhim strategik yoʻnalishdir.

Tinchlik yoʻlidagi qatʼiy iroda

Husnora AHADOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi huzuridagi Yoshlar
parlamenti raisi oʻrinbosari:

— Prezidentimiz maqolada taʼkidlaganidek, bugungi murakkab global vaziyatda mintaqaviy hamkorlik siyosiy shior emas, strategik zarurat darajasiga koʻtarildi. Iqlim oʻzgarishi, geosiyosiy beqarorlik, iqtisodiy boʻlinish kuchayib borayotgan davrda faqat jipslashgan mintaqalargina barqaror taraqqiyotga erisha oladi. Markaziy Osiyo esa bugun aynan shunday mustahkam birdamlik makoniga aylanmoqda. Mintaqaning xalqaro maydondagi mavqei ham yangi bosqichga koʻtarildi. “Markaziy Osiyo plyus” formatlarida mintaqaning global hamkor sifatida qabul qilinmoqda. Bu uning siyosiy nufuzi, iqtisodiy salohiyati va xalqaro ishonchi oshganidan dalolat beradi.



Prezidentimiz alohida urgʻu berganidek, Markaziy Osiyo hamkorligi hech qachon tashqi modellarni koʻchirib olishga asoslanmasligi, balki suverenitet, tenglik va oʻzaro hurmat tamoyillariga tayanishi kerak. Bu — pragmatik, barqaror va xalqlar manfaatiga xizmat qiluvchi yondashuv.

Shu boisdan mazkur maqolani yangi siyosiy tafakkur, mintaqaviy birdamlik va umumiy manfaat manifesti, deb atash mumkin. Unda Markaziy Osiyo kelajagi uchun masʼuliyat hissi, farovonlik va tinchlik yoʻlidagi qatʼiy iroda mujassam.

Biz, yoshlar vakili sifatida ushbu gʻoyalarni hayotga tatbiq qilish, davlatlararo munosabatlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash, mintaqaviy integratsiyani rivojlantirishda faol qatnashishimiz zarur. Zero, Markaziy Osiyoning yangi kelajagi nafaqat rahbarlarning siyosiy irodasi, balki har bir fuqaroning masʼuliyati, faolligi va vatanparvarlik tuygʻusi bilan barpo etiladi.

“Xalq soʻzi”.

YOSHLAR UCHUN YUKSAK MAQSADLAR MANIFESTI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Xalq soʻzi” gazetasining 13-noyabr sonida chop etilgan maqolasida Markaziy Osiyoda yuz berayotgan yangi oʻzgarishlar haqida soʻz yuritiladi. Davlatimiz rahbarining taʼkidlashicha, mintaqamizda uzoq yillardan soʻng ilk bor umumiy taraqqiyot va barqarorlik yoʻlida birgalikda harakat qilayotgan yangi bosqichga qadam qoʻyildi. Ushbu maqola biz — yangi avlod vakillari uchun amaliy “Yoʻl xaritasi” vazifasini oʻtashi shubhasiz.

Bugun Markaziy Osiyo tarixida yangi sahifa ochilmoqda. Bu sahifada oʻzaro ishonch, doʻstlik, yaxshi qoʻshnichilik va hurmatga asoslangan, bir-birini tushunadigan hamda birgalikda kelajak buniyod etadigan davlatlar manzarasi gavdalanaadi. Endilikda mintaqada xalqlari nafaqat geografik, balki maqsad, qadriyat va orzular jihatdan ham yaqinlashib bormoqda.

Davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, mintaqamizda ishonch va oʻzaro hurmat muhitining mustahkamlanishi — bu tasodifiy holat emas. Bu uzoq yillar davomida toʻplangan tajriba, oqilona siyosat va eng muhimi, xalqimizning tinchlik, barqarorlik hamda taraqqiyotga boʻlgan intilishining samarasidir.

Bugun yoshlar shu jarayonlarning bevosita ishtirokchisiga aylanmoqda. Mintaqaviy hamkorlikning chuqurlashuvi, iqtisodiyot, ilm-fan, taʼlim, madaniyat va yoshlar diplomatiyasi sohalaridagi aloqalarning kengayishi — bularning barchasi biz uchun yangi ufgʻlarni ochmoqda.

Yoshlar parlamenti aʼzosi sifatida taʼkidlashim joizki, maqolada urgʻu berilgan “Markaziy Osiyo — 2040” mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirish konsepsiyasi mintaqada aholisi tarkibida salmogʻi 50 foizdan ortiqni tashkil etadigan yosh avlod uchun aniq maqsad va vazifalarni belgilab beradi. Demak, aynan biz — bu konsepsiyaning amaliy ijrochilari, yangi Markaziy Osiyoni barpo etuvchi avlodimiz.

Prezidentimizning “biz devor emas, balki koʻprik barpo etmoqdami” degan soʻzlari bugungi yoshlar ruhiyatini, ularning yangicha tafakkurini ifodalaydi. Biz, Markaziy Osiyo yoshlari koʻshni davlatlardagi tengdoshlarimiz bilan hamkorlikda oʻrganishni, yaratishni va mintaqamizni dunyoga tanitishni xohlaymiz.

Bugun Markaziy Osiyoda yangi tafakkur — hamjihatlik, umumiy manfaat va oʻzaro ishonchga asoslangan siyosiy, iqtisodiy hamda gumanitar uygʻonish davri boshlandi. Bu jarayonda yoshlar eng faol qatlam boʻlishi, uni innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, ilm-maʼrifat va ijtimoiy tashabbuslar bilan boyitishi zarur. Maʼrifat va yangilikka intilish esa mintaqani yangi bosqichga olib chiqadigan asosiy harakatlantiruvchi kuch boʻlib qolmoqda.

Shu maʼnoda Prezidentimizning ushbu maqolasi nafaqat siyosiy dasturiy hujjat, balki biz, yoshlar uchun masʼuliyat, fidoyilik va yuksak maqsadlar manifesti boʻlib xizmat qiladi.

Avazbek ARABBOYEV,
Oliy Majlis Senati huzuridagi
Yoshlar parlamenti aʼzosi.

CHINAKAM BIRDAMLIK VA HAMJIHATLIK SARI DADIL QADAM



Oʻzbekiston davlat rahbarining maqolasi menda katta taassurot qoldirdi. Bunday keng koʻlamli islohotlar butun Markaziy Osiyo tarixida yangi sahifa ochmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganidek, vaqt va hayot sinovidan oʻtgan, ishonchli, yaxshi qoʻshnichilik va oʻzaro qoʻllab-quvvatlashga asoslangan model yaratilmoqda.

Adam SAUD,
Pokistondagi Bahriya
universitetining gumanitar va
ijtimoiy fanlar fakulteti dekani,
professor:

— “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” sarlavhali maqolani katta qiziqish bilan oʻqib chiqdim. Albatta, Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu maqolasi haqida fikr bildirish har bir ekspertga katta masʼuliyat yuklaydi. Oʻzbekiston Prezidenti Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni taʼminlash, yillar davomida toʻplanib qolgan muammolarni, xususan,



davlat chegaralari bilan bogʻliq holatlarni hal qilishdagi saʼy-harakatlarini hech kim inkor etolmaydi. Maqolada ana shu jihatlar qalamga olingan, mintaqada kechayotgan bugungi voqealar, mamlakatlar oʻrtasida soʻnggi yillarda vujudga kelgan yaqin qoʻshnichilik aloqalari va mavjud muammolar chuqur tahlil qilingan.

Markaziy Osiyo oʻz taraqqiyotining yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqichiga qadam qoʻymoqda. Bugun chinakam birdamlik bosqichiga oʻtyapti. Mintaqada uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda oldinga qarab borish uchun poydevor boʻlib xizmat qilayotgan oʻzaro ishonch, yaxshi qoʻshnichilik va hurmat muhiti shakllanmoqda.

Men har safar Oʻzbekistonga borganimda ulkan oʻzgarishlarga guvoh boʻlaman. Bu quvonarli, albatta. Shu oʻrinda taʼkidlash kerakki, Oʻzbekiston Prezidenti nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtirdi, balki Markaziy va Janubiy Osiyo oʻzaro bogʻliqligini yanada mustahkamlashda ham asosiy rol oʻynamoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Janubiy Osiyo mamlakatlari, xususan, Pokiston bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratayotgan yuqori eʼtibori mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligini taʼminlashga muhim hissa boʻlib qoʻshilyapti.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi Markaziy Osiyoni barpo etish borasida boshlangan jarayon ortga qaytmas yoʻl

ekanini taʼkidlar ekan, mintaqada tinchlik, barqarorlik va farovonlikni taʼminlash yoʻlidagi tarixiy birlikni asrab-avaylash barcha mamlakatlar oldidagi umumiy vazifa ekanini bildiradi. Davlat rahbarining mazkur fikrlari Janubiy Osiyo mamlakatlari uchun birdek muhim, deb oʻylayman.

Tokun MAMITOV,
Qirgʻiziston Milliy fanlar
akademiyasi Davlat va huquq
instituti direktori, siyosiy fanlar
doktori, professor, taniqli
siyosatshunos:

— Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning maqolasi jadal geosiyosiy oʻzgarishlar davrida Markaziy Osiyoning roli toʻgʻrisida va ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar boʻyicha mintaqaviy hamkorlikning zamonaviy doktrinasini shakllantiruvchi fundamental dasturiy hujjatdir.

“Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasida strategik qarash, tarixiy realizm va ishonch, oʻzaro hurmat hamda pragmatizmga asoslangan zamonaviy siyosiy madaniyat uygʻunligi namoyon boʻladi. Markaziy Osiyo tom maʼnoda



barqaror rivojlanish, mintaqaviy jipslashuv va xalqaro subyektilikning yangi davriga qadam qoʻydi.

Markaziy Osiyo oʻz taʼminot zanjirlari — sanoat zonolari, qoʻshma GES va energetika tizimlari, transport yoʻlaklari va logistika klasterlarini shakllantirmoqda. Bu zamonaviy “Mintaqaviy ishlab chiqarish sinergiyasi” modeliga mos keladi.

Transfaʼon temir yoʻli, “Shimol — Janub” va “Oʻrta koridor” yoʻlaklari, sanoat kooperatsiyasi boʻyicha xalqaro markazlar tashkil etish, chegara tartib-taomillarini soddalashtirish alohida ahamiyatga ega. Maqolada muhim fakt toʻgʻri aks ettirilgan: mintaqada ilk bor tashqi kuchlar tomonidan yagona siyosiy subyekti sifatida qabul qilina boshlandi. Oʻndan ortiq platformalar mavjud boʻlib, ular davlat rahbarlari, hukumatlararo mexanizmlar va aniq tarmoq loyihalari darajasiga koʻtarilgan. Bu Markaziy Osiyoning mustaqil geosiyosiy markaz sifatida eʼtirof etilishini anglatadi.

Oʻzbekiston rahbarining maqolada keltirilgan strategik ahamiyatga ega gʻoyalari Markaziy Osiyo davlatlari uchun mintaqaviy milliy suverenitetni mustahkamlaydi, mamlakatlarning teng huquqliligini kafolatlaydi, energetika hamda suv sohasidagi qoʻshma loyihani amalga oshiradi, yoshlar uchun ilm-fan va taʼlim integratsiyasini yoʻlga qoʻyadi.

“Dunyo” AA.

